

把 “BĀ” HISOB SO‘ZINING PAYDO BO‘LISH OMILLARI

Ziyoda Zayniddinovna ARTIKOVA

O‘qituvchi, mustaqil izlanuvchi

Xitoy filologiyasi kafedrası

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

ФАКТОРЫ ПОЯВЛЕНИЯ СЧЁТНОГО СЛОВА 把 «BĀ»

Зиёда Зайнитдиновна АРТИКОВА

Преподаватель

Кафедра китайской филологии

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

FACTORS OF EMERGING THE MEASURE WORD 把 “BĀ”

Ziyoda Zayniddinovna ARTIKOVA

Teacher

Department Chinese philology

Tashkent state institute of oriental studies

Tashkent, Uzbekistan Ziyda78@mail.ru

UDC (UO‘K, УДК): 81.367.522

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Artikova Z. Z. 把 “bā” hisob so‘zining paydo bo‘lish omillari //O‘zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 2 (49). — B. 38-53.

<https://doi.org/10.36078/1683268932>

Received: February 15, 2023

Accepted: April 17, 2023

Published: April 20, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Xitoy tili hisob so‘zlarining ishlatish ko‘lami keng va grammatikaning ajralmas bo‘lagi hisoblanadi. Shulardan 把 “bā” hisob so‘zi dastlab fe’l so‘z turkumiga tegishli bo‘lib, vaqtlar o‘tishi bilan, jamiyatdagi, tildagi qonuniyatlarining ta’siri natijasida uning hisob so‘zi ma’nosini ham paydo bo‘lgan. 把 “bā” hisob so‘zining dastlabki qo‘llanilishidan to‘ hozirgi kungacha bo‘lgan tarixiy rivojlanishi yo‘lida ko‘pgina o‘zgarishlar va shakllar paydo bo‘lgan. Til tashqi va ichki omillarining ta’siri natijasida xitoy tilidagi ushbu iyeroglifning fe’l mustaqil so‘z turkumidan hisob so‘zi yordamchi so‘z turkumiga xoslanib borishi bu tilda ishlatishga bo‘lgan ehtiyoj hisoblaniladi. Faqat shundagina tilni kundan kunga boyitish, muloqot chog‘ida uni yanada aniqlashtirib ko‘rsatish mumkin. Maqolada turli davrga tegishli bo‘lgan omillarni ko‘rib chiqish maqsad qilingan. Bundan kelib chiqib shuni aytishimik mumkinki, 把 “bā” fe’li rivojlanish yo‘lida hisob so‘zi sifatida shakllangan va hozirda u xitoy tili grammatikasida keng qo‘llanilib kelmoqda. Ishlatilganda 把 “bā” hisob so‘zi ham nom hisob so‘zi sifatida, ham harakat uchun foydalananligidan hisob so‘zi sifatida xitoy tili grammatikasida muhim o‘rin egallaydi.

Kalit so‘zlar: 把 “bā” hisob so‘zi; 把 “bā” donaboy nom hisob so‘zi; 把 “bā” jamlovchi nom hisob so‘zi; hisob so‘zli birikma; o‘lchov birligi; gap strukturasi; to‘ldiruvchi; obekt; fe’l; mustaqil so‘z turkumi; yordamchi so‘z turkumi.

Аннотация. Широко используемые в китайском языке счётные слова являются неотъемлемой частью грамматики китайского языка. Из них 把 «бā» изначально относился к категории

глагольных слов, а со временем в языке появилось значение счетного слова. Историческое развитие иероглифа 把 «bā» как счётного слова связано со многими факторами. Необходимость использования этого иероглифа в китайском языке и перехода его из глагольной части речи в счётные слова обусловлена влиянием внешних и внутренних факторов языка. В статье рассматриваются факторы, относящиеся к разным периодам Китая. Исходя из этого, можно сказать, что иероглиф 把 «bā» уже сформировался как счётное слово и в настоящее время широко используется в грамматике китайского языка. 把 «bā», занимая важное место в китайском языке, используется и как именное счётное слово, и как счётное слово для действий.

Ключевые слова: счётное слово 把 «bā»; штучное именное счётное слово 把 «bā»; собирательное именное счётное слово 把 «bā»; словосочетание со счётным словом; единица измерения; структура предложения; объект; дополнение; глагол; самостоятельные части речи; служебные части речи.

Abstract. Measure words are widely used in the Chinese language and are an integral part of the grammar of the Chinese language. Of these, 把 “bā” originally belonged to the category of verb words. Over time, because of the influence of laws in society, the meaning of the measure word appeared in the language. The historical development of the hieroglyph “bā” as a measure word is associated with many factors. The need to use this hieroglyph in the Chinese language and its transition from the verbal part of speech to the measure word is due to the influence of external and internal factors of the language. The article discusses factors related to different periods in China. The study supports the idea that the hieroglyph 把 “bā” has already been formed as a measure word and is currently widely used in the grammar of the Chinese language. 把 “bā” occupying an important place in the Chinese language is used both as a nominal measure word and as a measure word for actions.

Keywords: measure word 把 “bā”; piece nominal measure word 把 “bā”; collective nominal measure word with 把“bā”; phrases with measure word; unit of measurement; sentence structure; object; addition; verb; notional parts of speech; functional parts of speech.

Xitoyning Chin davrigacha bo‘lgan vaqt mobaynida¹ 把 “bā” iyeroglifini ko‘proq “持” [chí] qo‘lda ushiamoq, qo‘lga olmoq, “握手” [wò chí] mahkam ushiamoq kabi fe’lli ma’nolari ishlatilgan. Hozirgi zamon xitoy tilida hisob so‘zilar nom hisob so‘zlar va harakat hisob so‘zlariga bo‘linadi. Avval 把 “bā” nom hisob so‘zining jamlovchi turini yoritib o‘tamiz. Chunki uning paydo bo‘lishi 把 “bā” donabay hisob so‘zidan oldin bo‘lgan. 把 “bā” jamlovechi hisob so‘zi siqim, bog‘lam ma’nolarida keladi.

Masalan: 竖亥右手把算, 左手指青丘北 [Shù hài yòu shǒu bǎ suàn, zuó shóu zhǐ qīng qīū běi] (1).

刘世儒 Liú shì rú ning fíkricha 把 “bā” ni fe’l so‘z turkumidan hisob so‘zi turkumiga o‘tib qo‘llanishning birinchi qadami qo‘l bilan

¹ 先秦时期 — Chin epoxasidan oldingi davrlar (夏, 商, 周 (sharqiy Jou va harbiy Jou) 春秋, 战国 sulolalari hukmronlik surgan), poleolit davridan boshlab to er.av. 221-yilgacha.

ushlab o'chanadigan narsalarni nisbatan ishlatishdan boshlangan. Chin davrigacha 把 “bā” nafaqat qo'l bilan sodir qilinadigan harakatlarga nisbatan, balki bir qo'l bilan siqimlab narsani o'chash vositasi vazifasida ham ishlatilgan, ya'ni hisob birligi bo'lgan. Ammo bunda talab shunday bo'lganki, ob²yekt, albatta, qo'l bilan mahkam ushlana oladigan narsa bo'lishi kerak. 把 “bā” narsalarni ushlab o'chash bilan birga deyarli o'chov va taroz vazifasini o'tagan.

Masalan: 孟子曰：拱把之桐梓，人苟欲生之，皆知所以养之者 [Mèng zi yuē: gǒng bǎ zhī tóng zǐ, rén gǒu yù shēng zhī, jiē zhī suǒ yǐ yǎng zhī zhě] (2)。

Qadimgi xitoy tili grammatikasi ustida ish olib borgan taniqli xitoylik tilshunos olim 杨伯峻 Yáng Bójùn bu gaplardagi “拱” [gǒng] so‘zini ikkita qo‘li bilan birga ushslash ma’nosini borligini, 把 “bā” da esa bitta qo‘l bilan ushslash ma’nosini aks etishini ayтиб o‘tgan. “拱” [gǒng] ikkita kalitdan iborat: 共 [gòng] umumiy va 手 (才) [shǒu] qo‘l iyeroglifi kalitining grafemasi (yon bo‘lagi), 把 “bā” da ham ikkita kalit bor: 手 (才) [shǒu] qo‘l iyeroglifi kalitining grafemasi (yon bo‘lagi), 巴 [bā] uning foni (talaffuz qismi) hisoblanadi.

Masalan: 其拱把而上者，求狙猴之杙者斩之。三围四围，求高名之丽者斩之 [Qí gǒng bǎ ér shàng zhě, qiú jū hóu zhī yì zhě zhǎn zhī. Sān wéi sì wéi, qiú gāo míng zhī lì zhě zhǎn zhī]。Gapdagı 围 [wéi] va 把 [bǎ] hisob so‘zlarini olsak, ikkalasi ham narsaning kengligini yoki katta- kichikligini ifodalaydi.

把 “bā” asosiy hisob birlik sifatida rivojlanib, G‘arbiy Xan davrida uning bir ko‘rinishi paydo bo‘ldi. Bu 把 “bā” ning hisob so‘zi sifatidagi ilk ko‘rinishi bo‘lgan.

Masalan:

夫腹下之毳，背上之毛，增去一把，飞不为高下 [Fū fù xià zhī cuì，bèi shàng zhī máo，zēng qù yī bǎ，fēi bù wéi gāo xià.] (3)。

Gapdagи 毛 [máo] *tuk, pat* so‘zi ipsimon ko‘rinishdagi qo‘l bilan ushlasa bo‘ladigan narsa bo‘lib, bu yerda 毛 so‘zining 把 “bā” jamlovchi hisob so‘zi bilan kelishi sababi, 把 “bā” ning asosiy semantik ma’nosi harakatni bajaruvchisi ushslash harakati orqali qo‘lini changallash shaklida “毛” ni hisobiga ta’sir qilishdan iboratdir. Bu yerda 把 “bā” jamlovchi hisob so‘zi bo‘lib kelsa-da, lekin bunday jarayon 把 “bā” ni nom hisob so‘zi sifatida ham ishlatilishiga turtki bo‘ladi. Xitoy yozuvchisi 刘向 ning “说苑” asarida bunday misollarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. 把 “bā” fe'l so‘z turkumidan hisob so‘ziga o‘tishi jarayonida uning otli ma’nosi hosil bo‘lishi hodisasi yuz beradi. Uning ot sifatida ham kelishi “一把” [yī bā] so‘zini paydo bo‘lishi ketidan sodir bo‘lgan emas, ammo 把 “bā” otining hisob so‘zi turkumiga o‘tishiga ta’siri bo‘lgan. G‘arbiy Xan davrida 把 “bā” nom hisob so‘zi hisob birligini bildiruvchi ottan hisob so‘ziga o‘tish holatida bo‘lgan. Shu tariqa 把 “bā” ni donabay hisob so‘ziga o‘tishi jarayoni boshlangan.

Vey Jing janubiy shimoliy sulolalari hukmronligi davrida 把 “bā” jamlovchi hisob so‘zini ishlatish ko‘lami yanada kengaydi. “Son + hisob so‘zi + ot” va “Ot + hisob so‘zi + son” ko‘rinishdagi gap shakllari paydo bo‘ldi. Bu davrlarga kelib 把 “bā” jamlovchi hisob so‘zi keng ishlatila boshlandi.

Masalan:

口赤稻一臼米里着蒿叶一把，白盐一把，合口之，即绝白 [Wéi chì dào yī jiù mǐ lǐ zhe hāoyè yī bǎ, bái yán yī bǎ, hé wéi zhī, jí jué bái.] (4). Bu gapda tuz va shuvoqqa nisbatan “一把” so‘zi ishlatilib, *bir siqim* ma’nosini bildiradi.

把 “bā” jamlovchi hisob so‘zi tuk, patning hisobini ifodalashdan tashqari yana tasmasimon (艾 [ài] shuvoq, 蒿叶 [hāo yè] shuvoq barglari), donador kukunsimon (豆 [dòu] dukkak, 盐 [yán] tuz, 麦 [mài] bug‘doy) narsalarning o‘lchovini ifodalashda ham ishlatila boshladi. 把 “bā” jamlovchi hisob so‘zining *don, tuz, bug‘doy* kabi narsalarga nisbatan ishlatilishining sababi, qo‘l harakati orqali ularni boshqarish ma’nosini va bu ta’sirning yaqqol natijasi borligidadir, unda 把 “bā” fe’li ma’nosini izlari borligi ko‘rinib turibdi. 把 “bā” jamlovchi hisob so‘zi nafaqat tasmasimon, donsimon, kukunsimon narsalarning hisobida ishlatilgan, balki qo‘l bilan ushlab, tutib tursa bo‘ladigan narsalarning ham hisobini ifodalagan. Ammo 把 “bā” jamlovchi hisob so‘zi aniq bir miqdorni bildirmagan, qo‘l bilan siqib ushslash holatidagi taxminiy miqdorni ifodalagan.

Masalan:

昔有一猕猴，持一把豆，误落一豆在地，便舍手中豆，欲觅其一[Xī yǒu yī mí hóu, chí yī bǎ dòu, wù luò yī dòu zài dì, biàn shě shǒu zhōng dòu, yù mì qí yī.]。Ushbu gapda 一把 *birikmasi* “maymunning qo‘lida *bir siqim boshoq* ushlab turgani” holatini ifodalagan.

隋唐五代 Sui Tang besh sulola² hukmronligi paytida 把 “bā” jamlovchi hisob so‘zi Janubiy va Shimoliy sulolalari davrida mayjud bo‘lgan gap shakllari asosida shakllanishni davom etdi. 把 “bā” hisob so‘zi bilan o‘lchanadigan narsalarning ko‘lami kengaydi, 把 “bā” dan oldin qo‘yiladigan son “一” [yī] *bir* soni bilan cheklanib qolinmadni.

Masalan:

或蒸一升麻，或燂两把菊。[Huò zhēng yī shēng má, huò yè liǎng bǎ jú.] 两把菊 *ikki qism xrizantemani* ifodalaydi (5).

陶侃尝出游，见人持一把未熟稻，侃文：“用此何为？” [Táo kǎn cháng chū yóu, jiàn rén chí yī bǎ wèi shú dào, kǎn wén: “yòng cǐ hé wéi?”] (6).

Bu davrda “一把子” [yī bǎ zi] yangi shakl paydo bo‘ldi, 把 “bā” dan keyin “子” zi qo‘shimchasi (suffiks) qo‘shilib ishlatila boshlandi. Bunday shakldagi gaplarda ko‘proq salbiy ma’no bor bo‘lib, stilistik bo‘yoq berish uchun ishlatilgan, guruhda odam soni

² 隋唐时期 Eramiznig 581-y. dan 960-yilgacha.

kamligiga ishora qiladi. “一把子” [yī bǎ zi] yangi shaklning paydo bo‘lishi shu narsati ko‘rsatdi-ki, hisob so‘zi struktur shaklining o‘zgarishi uning grammatik ma’nosini aniqlashtirib berdi. Chunki uning bu shakli hisob so‘zi ma’nosini doirasini kengaytirishda ahamiyati katta bo‘lgan.

Masalan:

侯景登石头城，望官军之盛，不悦，曰：“一把子人，何足可打。” [Hóu jǐng dēng shí tóu chéng, wàng guān jūn zhī shèng, bù yuè, yuē: “yī bǎ zi rén, hé zú kě dǎ.]

宋 Song davridan boshlab 把“bǎ” jamlovchi hisob so‘zining grammatik ma’nosida o‘zgarish sodir bo‘lib, u qattiq holatdagi jismlarning o‘lchovi bilan birga suyuq holatdagi jismlarning o‘lchovi uchun ham ishlatila boshladi. 唐 Tang sulolasi davridagi 把“bǎ” jamlovchi hisob so‘zi yana bir predmetga nisbatan, ya’ni 骨头 [gǔ tóu] suyakka nisbatan ishlatila boshlagan.

Masalan:

更鞴雕鞍教走马，玉骨瘦来无一把 [Gēng bèi diāo ān jiào zǒu mǎ, yù gǔ shòu lái wú yī bǎ.]

宋元 Song Yuan davrlarida 把“bǎ” jamlovchi hisob so‘zi grammatikasidagi asosiy o‘zgarish bu uni suyuq jismlarning o‘lchovi sifatida ishlatilganlidir, oldingi davrdagi manbalarda uning bu grammatik xususiyati haqida misollarni uchratmadik.

明清 Ming Qing davrlariga kelib, 把“bǎ” jamlovchi hisob so‘zini suyuq jismlarni ifodalash sifatida ishlatilishi yanada ommalashdi.

Masalan:

如今一把伤心泪，犹恨江南过此生 [Rú jīn yī bǎ shāng xīn lèi, yóu hèn jiāng nán guò cǐ shēng.] (10)。

Ming Ching davrida 把“bǎ” jamlovchi hisob so‘zi suyuq jismlar uchun o‘lchov birligi sifatida ishlatilishi yanada keng tus oldi. Endi bunday buyumlar siraga ko‘proq narsalar kira boshladi.

Masalan:

这刘太公怀着鬼胎，庄家们豆捏着两把汗 [Zhè liú tài gōng huái zhe guǐ tāi, zhuāng jiā men dòu niē zhe liǎng bǎ hàn.] (7)。

贾瑞也捻着一把汗，少不得回来撒谎，只说“往舅舅家去了，天黑了，留我住了一夜。” [Jiǎ ruì yě niǎn zhe yī bǎ hàn, shǎo bù dé huí lái sā huǎng, zhǐ shuō “wǎng jiù jiù jiā qù le, tiān hēi le, liú wǒ zhù le yī yè.”] (8)

Bu davrda yana “一把眼泪，一把鼻涕” [yī bǎ yǎn lèi, yī bǎ bíti] jiqlqa ko‘z yoshi, jiqlqa burundan oqqan yosh” kabi turg‘un birikma paydo bo‘ldi.

Masalan:

大家见面，一把鼻涕，一把眼泪，各人告诉各人苦处 [Dà jiā jiàn miàn, yī bǎ bí tì, yī bǎ yǎn lèi, gè rén gào sù gè rén kǔ chù.]。

把“bǎ” jamlovchi hisob so‘zi izohlab keladigan otlar qatoriga yangi so‘zlar qo‘sildi, endi inson yoshi hisobini ifodalashda ham 把

“bă” ishlatila boshladi. Bunda yoshni yo ancha kattaligi, yo ancha kichikligi ma’nosi ifodalanadi.

Masalan:

你一把年纪的人了，诸事只宜退缩算 [Nǐ yī bă nián jì de rén le, zhū shì zhī yí tuì suō suàn.] (14)。

你虽然一把年纪，那生意行中，从不曾着脚，却去弄虚头，说大话兜揽这帐 [Nǐ suī rán yī bă nián jì, nà shēng yì xíng zhōng, cóng bù zēng zhe jiǎo, què qù nòng xū tóu, shuō dà huà dōu lǎn zhè zhàng.] (9)。

Yana “ko‘rsatish olmoshi + 把” ko‘rinishidagi struktura ham ishlatila boshlandi.

Masalan:

谁想这把骨头却落在这里，断送了残生性命 [Shéi xiǎng zhè bă gǔ tóu què luò zài zhè lǐ, duàn sòng liǎo cán shēng xìng mìng.]。

明代 Ming darvrida yaratilgan asarlarda “son + sıfat + 把” ko‘rinishida gaplarni uchratishimiz mumkin. Bunda sonni tushirib qolish holatlarini ham uchratish mumkin. Bunday shakldagi gaplar ko‘proq tibbiyotga oid kitoblarda uchragan. Sıfat bo‘lib keladigan “大” dà katta, “小” xiǎo kichkina so‘zleri nisbiy tushunchalar bo‘lib, aniq bir hisobga to‘g‘ri kelmaydi, ya’ni noaniq miqdorli jamlash usuli, bu o‘lchash usuli hozirgi kungacha ishlatilib kelmoqda.

Masalan:

用白茅根一大把，小豆三升 [Yòng bái xù gēn yī dà bă, xiǎo dòu sān shēng.]。

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki 把 “bă” donabay hisob so‘zi 把 “bă” jamlovchi hisob so‘zidan keyinroq paydo bo‘lgan. Xitoy olimlari 东汉 Dong Han sharqiy Xan davridagi qo‘l yozmalarda 把 “bă” donabay hisob so‘zli gaplarni uchratganlar.

Masalan:

日，火也。使在地之火，附一把炬，人从旁射之，虽中，安能灭之？ [Rì, huǒ yě. Shǐ zài dì zhī huǒ, fù yì bă jù, rén cóng páng shè zhī, suī zhōng, ān néng miè zhī?] (10)

把 “bă” donabay hisob so‘zi ushlaydigan tutqichi, dastasi bor narsalarni ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Strukturaviy tuzilishi quyidagicha: “Son + 把 “bă” donabay hisob so‘zi + ot” va bu tuzilish hozirgi kunga qadar ishlatilib kelmoqda.

Masalan:

试使一人把大焰火夜行于道，平易无险，去人不一里，火光灭矣。非灭也，远也 [Shì shǐ yī rén bă dà yān yè xíng yú dào, píng yì wú xiǎn, qù rén bù yī lǐ, huǒ guāng miè yǐ. Fēi miè yě, yuǎn yě.] (17)。

“一把焰” [yī bă yān] bir mash’al birikmasiga “把大焰” [bă dà yān] qo‘lda mash’al ushiamoq birikmasining ta’siri bor bo‘lgan. Bundan bilishimiz mumkinki, 把 “bă” donabay hisob so‘zining paydo bo‘lishiga 把 “bă” fe’lining ta’siri katta bo‘lgan. 把 “bă” fe’li mustaqil so‘z turkumidan yordamchi so‘z turkumiga xoslanib borishi

davomida ma’nosida o‘zgarish ro‘y berib, narsani qo‘lda ushlab o‘lchov birligi sifatida ifodalash ma’nosi paydo bo‘lganidan keyin ham xoslanishni davom ettirgan. Keyinchalik tutqichi yoki shunga o‘xhash ushlaydigan joyi bor bo‘lgan narsalarning o‘lchovini ko‘rsatish uchun ishlatila boshlagan. Shu tariqa 把 “bā” donabay hisob so‘zi paydo bo‘lgan. Agar boshqaruv amalga oshiriladigan, ta’sir ko‘rsatiladigan narsa donalab hisoblanadigan ot bo‘lsa 把 “bā” donabay hisob so‘zi ishlatilgan. Demak, 把 “bā” donabay hisob so‘zining paydo bo‘lishi 把 “bā” fe’lining o‘z xususiyatini yo‘qotib, yordamchi so‘z turkumi xususiyatini olishi bilan bog‘liq bo‘lgan.

隋唐 Suí Táng davrlariga kelib 把 “bā” donabay hisob so‘zi ishtirokidagi ilk gaplar paydo bo‘ldi. Bunday gaplarni 论衡 Lùn héng asarida ham ko‘rshimiz mumkin.

Masalan:

使在地之火附一把炬。[Shǐ zài dì zhī huǒ fù yī bǎ jù.]

Bu yerda “一把炬” [yī bǎ jú] bitta mash’al degan ma’noni beradi. Oldingi davrlarda olovni mash’al qilib yoqishda dastasi bor, ushlab ko‘tarib yursa bo‘ladigan tayoqdan foydalilanilgan, tepe qismida olov yoqilgan, pastki qismi dastasi bo‘lgan. 唐代 Tang sulolasigacha bo‘lgan davrlarda bunday ko‘rinishdagi gaplar kam uchraydi, gap strukturasida son hisob so‘zli birikma otdan oldin kelib aniqlovchi vazifasini bajargan. 唐代 Tang davrida 把 “bā” donabay hisob sovzining ishlatilishi xali keng ko‘lam yoymagan edi, bu davrda boshlang‘ich bosqichda bo‘lgan.

宋元 davriga kelib 把 “bā” donabay hisob so‘zining ishlatilishi keskin sur’atlarda kengaydi. Qo‘l bilan o‘lchash vazifasi ishlatishdan tashqari yana boshqa vazifalarni ham bajara boshladi.

Masalan:

是夜劫中贼寨，夺弓数把，杀死番军甚众。[Shì yè jié zhōng zéi zhài, duó gōng shù bǎ, shā sǐ fān jūn shèn zhòng.]

引孙如今在邻舍家借了这一把铁锹。[Yǐn sūn rú jīn zài lín shè jiā jiè liǎo zhè yī bǎ tiě qiāo.]

Dastasi yo‘q narsalarga nisbatan ham ishlatila boshladi.

Masalan:

向旁边踢开一把银交椅，我则是靠着个栲栳圈站着。[Xiàng pang biān tī kāi yī bǎ yín jiāo yǐ, wǒ zé shì kào zhe gè kǎo lǎo quān zhàn zhe.]

Yuqoridagi fikrlarga asosan narsani boshqarish va unga ta’sir ko‘rsatishda 把 “bā” donabay hisob so‘zini ishlatiladigan obektlarni ikki guruhga bo‘lishimiz mumkin: birinchi guruhga “铁锹” [tiě qiāo] temir belkurak, “壺” [hú] choynak, “蒲扇” [pú shàn] qamishdan qilingan yelpig‘ich, “刀” [dāo] pichoq, “弓” [gōng] ” kabi dastasi bor, to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘l bilan ushlanib ishlatiladigan narsalarni kiritsak, ikkinchi guruhga “盖头” [gài tóu] marosim uchun kiyiladigan bosh kiyim, “交椅” [jiāo yǐ] taxtali kreslo, “纤腰” [xiān yāo] xipcha bel” kabi dastasi yo‘q, lekin qo‘l bilan ushlab tutsa bo‘ladigan narsalarni kiritamiz. Ammo ulardagi umumiylit bu narsalarni olib o‘tish yoki

ishlatishda qo'l bilan mahkam ushlay olishdir. 把“bā”donabay hisob so'zini ishlatishdagi shart ham shuki, u bilan ishlatiladigan narsani bitta ushslashda ilib olish kerak. Albatta, xitoy tilshunosligida dastasi yoki shunga o'xhash tutqichi bor hamma narsalarga nisbatan ham 把“bā”donabay hisob so'zi ishlatilmaydi. Bunda 把“bā”hisob so'ziga kognitiv tomondan ham yondoshish talab qilinadi.

把“bā”donabay hisob so'zining keng tarqalishi natijasida 宋代 Song davriga kelib u abstrakt narsalarni ifodalashda ham ishlatila boshladi.

Masalan:

与君一把无明火，烧尽千愁万恨心。[Yǔ jūn yī bǎ wú míng huǒ, shāo jìn qiān chóu wàn hèn xīn.] *Hukmdorni bitta jahlini chiqarsa, ko'plab g'am-tashvishlari va nafrat adovatlari kuyib tamom bo'ladi.*

元 Yuan davrida “ko'rsatish olmoshi + 把 + ot” turidagi gap strukturasi ishlatilgan. Gohida ushbu gap strukturasida ko'rsatish olmoshidan oldin keladigan “—” bir soni tushirib qoldirilgan holati bo'lgan, ammo bunday holat kam uchragan.

Masalan:

你道将着这把钥匙，揣在袖儿里，要寻你时，只在后花园里。
[Nǐ dào jiàng zhe zhè bǎ yào shi, chuāi zài xiù ér lǐ, yào xún nǐ shí, zhǐ zài hòu huān yuán lǐ.] *Sen bu kalitni qo'lida ushlab yengingga berkitib olishing, seni izlagan vaqtida faqat orqadagi bog'da bo'lishing kerak.*

Bu davrda insonni jamiyatdagi o'rnini, qudrati darajasini ifodalash uchun “第 + son + 把 + 交椅” gap shakli ishlatilgan. Ammo bu tuzilishdagi gaplarni juda kam uchratishimiz mumkin.

Masalan:

就让某第二把交椅坐了。[Jiù ràng mǒu dìèr bǎ jiāo yǐ zuò le.] *Undan ikkinchi hurmatli insonni o'tirishini so'radi.*

明清时期 Ming Qing sulolalari davrida 把“bā”oldingi davrlarda ishlatilgan gap tuzilishiga asoslanib yanada rivojlandi. Oldingi davrlarda kam ishlatilgan “第 + son + 把 + 交椅” gap tuzilishi bu davrlarga kelib ko'proq ishlatila boshladi.

Masalan:

他留下小弟在山上为寨主，让第一把交椅教小弟坐了，以此在这里落草。[Tā liúxià xiǎodì zài shān shàng wéi zhàizhǔ, ràng dìyī bǎ jiāoyǐ jiào xiǎodì zuò liǎo, yǐ cǐ zài zhèlǐ luòcǎo.] *U kichik ukasini tog'da qaroqchilar boshlig'ining qo'liga qoldirdi, bu yerda ukasini qaroqchi bo'lib yetilishi uchun undan ukasini tarbiyalashni buyurdi.*

李固回来对娘子说道：主人归顺了梁山泊宋江，坐了第二把交椅。[Lǐ gù huí lái duì niáng zǐ shuō dào: zhǔ rén guī shùn le liáng shān bó sòng jiāng, zuò liǎo dìèr bǎ jiāo yǐ] (11) *Ligu qaytib kelib onasiga dedi: xo'jayin Lyang Shanboga taslim bo'ldi, ikkinchi o'rinli darajaga erishdi.*

Ayrim hollarda “一把手” [yī bǎ shǒu] ham insonni jamiyatdagi obro'sini, darajasini ifodalovchi birikma sifatida kelgan.

Masalan:

官儿虽小，着实怕这“一把手”三个字。[Guān ér suī xiǎo, zhuo shí pà zhè “yī bǎ shǒu” sān gè zì .] *Amaldor yosh bo'lsa ham, lekin "obro 'li" degan bu so'zdan cho'chir edi.*

Bu davrda “ko‘rsatish olmoshi + 把 + ot” ko‘rinishidagi gap shaklini ishlatish ko‘لامى kengaydi. Xitoy tilida hozirgi kunga qadar ushbu gap shakli ishlatib kelinmoqda.

Masalan:

那梢公便去船板底下摸出那把明晃晃板刀来，大喝道…… [Nà shāo gōng biàn qù bó bǎn dǐ xià mō chū nà bǎ míng huǎng huǎng bǎn dǎo lái, dà hē dào……] (11) *U qayiqchi taxtani tagidan yaltirab turgan pichoqni olib, baland ovozda baqirdi.*

Ayrim manbalarda 把 “bā” hisob so‘zining oldiga ko‘rsatish olmoshi qo‘yilmagan, hattoki undan oldin son ham ishlatilmaganiga duch kelishimiz mumkin. Lekin bu holat gapning tuzilishiga, ma’nosiga ta’sir qilmagan, ifodalananayotgan ma’noni noto‘g‘ri tushunishga olib kelmagan. Nutqdagi tugal fikrni anglatuvchi jumlaga qarab to‘g‘ri son qo‘yish imkoniyati berilgan.

Masalan:

这些枷锁的和尚听说，连忙去厨房取把厨刀，递与八戒道。
[Zhè xiē jiā suǒ de hé shàng tīng shuō, lián máng qù chú fáng qǔ bǎ chú dāo, dì yǔ bā jiè dào.] *Kishanlangan bu rohiblar eshitishlari bilanoq, darhol oshxonaga borib pichoqni olishdi va Bajiega uzatishdi.*

明代 Ming davrida 把 “bā” hisob so‘zini boshqa hisob so‘zlar bilan birgalikda ishlatilgan holatini ko‘rishimiz mumkin. 把 “bā” hisob so‘zi boshqa hisob so‘zlarning ketidan kelib, taxminiy ma’noni ifodalagan. 清代 Qing davrida bunday ishlatilish yanada kengaygan.

Masalan:

晁盖动问道：“弊村曾拿得个把小贼么？”[Cháo gài dòng wèn dào: “bì cūn zēng ná dé gèbā xiǎo zéi me?] *Chao Gaydong so‘radi: qishloqda qachondir bir yarimta o‘g‘ri bo‘lganmi?*

马二先生看了一遍，不在意里，起来又走了里把多路。[Mǎ èr xiān shēng kàn liǎo yī biàn, bù zài yì lǐ, qǐ lái yòu zǒu liǎo lǐ bǎ duō lù.] *Janob Ma bir maritta qarab qo‘yib, e’tibor ham qilmadi, o‘midan turib yo‘lidan yurib ketdi.*

Bu misollardan ko‘rishimiz mumkinki, 把 “bā” aniq bir o‘lchovni ifodalamagan. 把 “bā” ning semantik ma’nosи undan oldingi so‘zni hisob so‘zi ekanligiga yo‘naltirilgan, 把 “bā” faqatgina o‘zidan oldingi hisob so‘zini izohlab unga tegishli so‘z sifatida keladi.

Son hisob so‘zi va ot birgalik ishlatilgan gap shakli qo‘llanishda davom etib 清代 Qing davriga kelib “一把好手” [yībā hǎoshǒu] ko‘rinishidagi birikma paydo bo‘ldi. Bu davrda ishlatilgan “一把好手” [yībā hǎoshǒu] birikmasi insonnni jamiyatdagi obro‘ e’tiborligi darajasini bildirmagan, balki odamning biron tomondan ustunligi ifodalangan. Hozirgi xitoy tilida ham bu birikma shu ma’noda qo‘llaniladi.

Masalan:

哈哈笑道：“老夏，老夏，我真佩服你是一把好手。[Hā hā xiào dào: “lǎo xià, lǎo xià, wǒ zhēn pèi fú nǐ shì yī bā hǎo shǒu.] Qariya Sya, rostdan ham senga qoyil qolaman, sen ishingni ustasisan, deb kulib yubordi.

Xitoylik tilshunos 王力 xitoy tilidagi harakatni ifodalovchi hisob so‘zi birliklarining (次, 回, 趟 kabi) paydo bo‘lishi predmetni ifodalovchi hisob so‘zi birliklariga nisbatan kechroq sodir bo‘lgani aytib o‘tgan. Haqiqatdan ham, 把“bā” harakat hisob so‘zi 把“bā” nom hisob so‘ziga nisbatan kechroq paydo bo‘lgan. Ko‘pgina xitoyshunoslar olimlarining manbalarida bu fikr keltirilgan. 叶桂淋 xitoy tilida hisob so‘zlar ustida tadqiqot olib borgan olim, uning hisoblashicha nom hisob so‘zlarini farqlash uchun harakat hisob so‘zlar paydo bo‘lgan. Xitoy tilshunosligida harakat hisob so‘zlarini fe’llardan kelib chiqqan degan fikr ilgari suradilar. Biz o‘ylazmizki, harakat hisob so‘zlarining kelib chiqishi fe’llar bilan chambarchas bog‘liq, va nom hisob so‘zlar bilan farqlash uchun ham ularni paydo bo‘lishi muhim hisoblanadi. 唐代 Tang sulolasi davrida 把“bā” donabay hisob so‘zi qo‘l bilan ushlab narsalar o‘lchovini belgilash sifatidagi ishlatilishi rivojiana boshlagan. Buning natijasida 把“bā” donabay hisob so‘zi qo‘l bilan qilinadigan bitta harakatni ifodalashiga turtki bo‘lgan. 唐代 Tang davrida 把“bā” harakat hisob so‘zi hali ishlatilmagan edi, faqatgina 宋 Song davriga kelib ishlatilishni boshlagan.

Masalan:

倒却门前刹竿着，一把推出谁藏缩。[Dǎo què mén qián shā gān zhe, yībā tuīchū shéi zàng suō.] Eshikni bir itarib ochgan edi, eshik oldida xoda bor ekan, kimdir berkitib uni tiqib qo‘ygan ekan.

元代 Yuan davrida 把“bā” harakat hisob so‘zining ishlatish ko‘لامи asta-sekin kengaygan. Qo‘l bilan harakatni ifodalashda qo‘l harakati tez va kuch bilan sodir qilinishi kerak bo‘lgan.

Masalan:

这厮又一把拿住我右腿。怎么好？[Zhè sī yòu yī bā ná zhù wǒ yòu tuǐ. Zěn me hǎo?] Bu xizmatchi yana mening o‘ng oyog‘imni ushlab oldi. Nima qilsa bo‘ladi?

Bu davrida 把“bā” harakat hisob so‘zi “拿, 拽, 扯, 揪, 捏” [ná, zhuā, chě, jiū, niē] kabi so‘zlar bilan birlilikda ishlatilgan. “拿 [ná] olmoq, ushiamoq, 拽 [zhuā] urmoq, kaltaklamoq, 扯 [chě] tortmoq, tortqilamoq, 揪 [jiū] mahkam ushiamoq, tortmoq, yulmoq, 捏 [niē] chimchilamoq” ma’nolarini bildirib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘l bilan sodir qilinadigan harakatni ifodalagan. 把“bā” harakat hisob so‘zidan keyin keladigan ushbu so‘zlar ba’zida fe’ldan oldin hol vazifasida kelib, harakatni amalga oshirish usulini bildirgan. Shu bilan birga ish qo‘l harakati bilan amalga oshirilganiga urg‘u bergen. Bundan tashqari bu birikmalarda harakat tez sodir bo‘lishi ma’nosi ham bor. Ayrim hollarda “拿, 拽, 扯, 揪, 捏” [ná, zhuā, chě, jiū, niē] so‘zlar gapda asosiy fe’l bo‘lib, undan keyin 把“bā” harakat hisob so‘zi kelgan va ma’nosi harakat amalga oshirilgani hisobi ifodalangan, ya’ni hozirgi

ko‘p ishlatiladigan 下 [xià] (bir martta degani, fe’ldan keyin kelib harakatni bir martta, qisqa muddatda sodir bo‘lishini ifodalaydi) hisob so‘zini ma’nosini bergen. Bu holatda 把 “bā” harakat hisob so‘zini 下 [xià] harakat hisob so‘zi bilan almashtirib ishlatsa ham bo‘ladi, faqat harakat kuchi nisbatan kamayganligi ma’nosini beradi. Fe’ldan keyin son hisob so‘zini kelishi 元 Yuan davridagina ishlatila boshlagan.

把 “bā” harakat hisob so‘zi fe’ldan oldin keladimi yoki fe’ldan keyin keladimi u bilan ishlatiladigan son faqat “一” [yī] *bir* soni bo‘lgan. “一把” [yībā] son hisob so‘zi gapda hol bo‘lib kelganda gapning markaziy bo‘lagidan keyin ko‘pincha holatni, natijani bildiradigan mazmun kelgan va fe’lni yakka o‘zi kelishi holati bo‘lman, hozirgacha shunday ishlatib kelinmoqda.

明清 Ming Qing davrida 把 “bā” harakat hisob so‘zi ishlatish ko‘لامى keng yoyildi. 明 Ming davrida yaratilgan 西游记 “G‘arbga sayohat” romanida bunday misollarni uchratishimiz mumkin. Misollarning ko‘pida 把 “bā” harakat hisob so‘zi “摸, 拽, 搂, 抱, 揪, 捏, 挑” kabi so‘zlar bilan bиргаликда ishlatilgan. Bu so‘zlearning ma’nosida umumiylilik bor, ya’ni barchasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘l bilan yoki qo‘l kafti, barmoqlari bilan sodir qilinadigan harakatni ifodalash ma’nosibor.

把 “bā” harakat hisob so‘zining sintaksisida keladigan o‘rniga binoan, uning ikki xil holatda ifodalanishini ko‘rish mumkin. Birinchisida, fe’ldan oldin hol vazifasida kelib, harakat amalga oshirish usulini ifodalaydi.

Masalan:

悟空近前，舒开手，一把挝起，对众笑道。[Wù kōng jìn qián, shūkāi shǒu, yī bǎ zhuā qǐ, duì zhòng xiào dào.] (12) *Ukong yaqinlshib, qo‘lini ochdi, tayoqni bir urib, hammaga qarab kulib qo‘ydi.*

Fe’ldan keyin to‘ldiruvchi kelib, u ham shaxsni, ham narsani ifodalagan.

Masalan:

闻太师心如刀割，一把抱住公明，泪流满面，哭声甚惨。
[Wén tài shī xīn rú dāo gē, yī bǎ bào zhù gōng míng, lèi liú mǎn miàn, kū shēng shèn cǎn.]

岂知那老者却从背后一把曳住袖子，叫道：郎君，好页形也！
[Qǐ zhī nà lǎo zhě què cóng bēi hòu yī bǎ yè zhù xiù zi, jiào dào: láng jūn, hǎo yè xíng yě!] *Ana u qariya orqadan kelib yengidan bir ushlab tortib gapirib qolishini kim bilibdi.*

Bunday gap tuzilishida yana “一把手 yibashou” birikmasi ishlatilib, harakatni tezgina bajarilishini ko‘rsatgan.

Masalan:

王婆一把手取过历头来挂在墙上。[Wáng pó yī bǎ shǒu qǔ guò lì tóu lái guà zài qiáng shàng.] *Vangpo bir qo‘li bilan taqvimni olib, devorga ilib qo‘ydi.*

Ikkinci holatda son bilan keladigan 把 “bā” harakat hisob so‘zi fe’lning ketidan kelib, ish-harakatning takrorlanish darajasini ifodalaydi.

Masalan:

悟空撩衣上前，摸了一把，乃师一根铁柱子，约有斗来粗，二丈有余长。[Wù kōng liáo yī shàng qián, mō liǎo yī bǎ, nǎi shī yī gēn tiě zhù zi, yuē yǒu dòu lái cū, èr zhàng yǒu yú cháng.] (12) *Ukong kiymini ko ‘tarib oldinga qadam tashlab uni bir silab qo ‘ydi, u temir qoziq bo ‘lib, taxminan chelak eni qalinligida, ikki jang uzunlikda edi.*

Bunda son va 把 “bā” harakat hisob so‘zi o‘rtasida to‘ldiruvchini qo‘yish mumkin bo‘lgan. Agar to‘ldiruvchi shaxsni ifodalasa sondan oldin qo‘yilgan, narsani ifodalasa “一把” son hisob so‘zli birikmadan keyin qo‘yilgan. Ammo bu davrda to‘ldiruvchini narsani ifodalab kelish holatlari uchramagan.

Masalan:

那时此宝有二丈多长，斗来粗细；被我挝他一把，意思嫌大，他就小了许多。[Nà shí cǐ bǎo yǒu èr zhàng duō cháng, dòu lái cū xi; bèi wǒ zhuā tā yī bǎ, yìsī xián dà, tā jiù xiǎo le xǔduō¹] (12) *U payt bolakay 2 jang uzun va semiz(1 jang 3,33 metrga teng) edi, men ishonmay uni bir urgan edim, u ancha kichkin alashib qoldi.*

.....就不如此，就不如此，也要抓你几把是！[.....jiù bù rúcǐ, jiù bù rú cǐ, yě yào zhuā nǐ jǐ bǎ shì!] (12) *Agar bunday bo‘lmasa, seni ham tutib olamiz!*

清 Qing davriga kelib 把 “bā” harakat hisob so‘zi 明 Ming davrida ishlatilgan qoidalar negizi asosida davom ettirildi. Asosiy qoidalari quyidagilar edi: fe’l yakka bo‘g‘inli bo‘lmasligi kerak, gap tuzilishi “son + hisob so‘zi (把) + fe’l” va “fe’l + son + hisob so‘zi (把)” lardan iborat bo‘lgan, son o‘rnida faqat “一” bir soni qo‘llanilmagan.

Uning rivojlanish yo‘lini ikkita tomondan ko‘rib chiqsa bo‘ladi, birinchisi, “一把” son hisob so‘zli birikma fe’ldan oldin hol vazifasida kelib, bunda fe’lning obekti “一把” son hisob so‘zli birikma va fe’l o‘rtasiga qo‘yilgan. Bu turdagilaplarda“袖子，扇子，手” so‘zları ko‘pincha “拉，夺，抓” fe’llarining obekti bo‘lib kelgan. Ushbu obekt so‘zlarning ushlaydigan tutqichi bo‘lib, ularni boshqarishda qo‘l harakati yordamida ta’sir o‘tkazilgan. Ching davridan oldin bu turdagilaplardan deyarli uchramagan, keyinchalik narsani boshqarishga ta’sir o‘tkazish tushunchasi paydo bo‘lishi sababli, bunday gaplar kelib chiqqan hisoblanadi. Chunki Ching davrida ushbu tushunchani paydo bo‘lishi va uni keng qo‘llanilishi sababli, bu strukturadagi gaplar ishlatila boshlangan.

Masalan:

一把将徐氏拉住，牵了链条，送到一个所在，将门推开，送她进去。[Yī bǎ jiàng Xú shì lāzhù, qiān le liàn tiáo, sòng dào yī gè suō zài, jiàng mén tuī kāi, sòng tā jìn qù.] *Bitta harakatda Syuyshe ni tortib ushlab oldi, zanjir bilan sudrab, uni kerak bo‘lgan joyga olib bordi va eshikni ochib ichkariga kirgazib qo ‘ydi.*

Ikkinchisi, “一把” son hisob so‘zli birikma fe’ldan keyin kelib, son o‘rnida “一” bir sonidan tashqari yana “两” ikki “几” nechchi kabi

so‘zlar ham ishlatilgan. Bu qo‘llash hozirgi xitoy tilidan birmuncha farq qiladi.

Masalan:

弯腰洗了两把。……再洗了两把，便要手巾。[Wānyāo xǐ le liǎng bǎ.zài xǐ le liǎng bǎ, biàn yào shǒu jīn: Engashib ikki martta yuvindi.Va yana ikki martta yuvdi, keyin sochiqni so‘radi.]

便向他身上拍了几把，芳官越发哭了。[Biàn xiàng tā shēn shàng pāi liǎo jǐ bǎ, fāng guān yuè fā kū le.] Uning yelkasiga bir necha martta qoqib qo‘ygan edi, amaldor Fang battar yig ‘lay ketdi.

Bu davrda to‘ldiruvchi shaxsni ifodalab kelishi holati ko‘p bo‘lgan, shu bilan birga to‘ldiruvchi narsani ifodalashi holati ham paydo bo‘lgan. “一把” son hisob so‘zidan keyin keladigan narsani bildiruvchi tovldiruvchini qo‘llanishi hozirgi xitoy tilida ham ishlatiladi.

Masalan:

赶紧起身，洗了一把脸，就拿拟的稿子送给胡统领瞧。[Gǎn jǐn qǐ shēn, xǐ le yī bǎ liǎn, jiù ná nǐ de gǎozi sòng gěi hú tǒng lǐng qiáo¹] (13) U tezda turib, yuzini bir yuvib, yozgan qoralamasini qo‘mondon Xu boshliqqa ko‘rsatish uchun eltib berdi.

羊统领只揩了一把脸，立刻要走。[Yáng tǒng lǐng zhǐ kāi liǎo yī bǎ liǎn, lì kè yào zǒu.] (13) Qo‘mondon Yang yuzini bir artib, darhol jo‘nadi.

Gohida gap ichida ham shaxsni ifodalarydigan, ham narsani ifodalarydigan to‘ldiruvchi bo‘lgan. Ammo hozirga kelib xitoy tili manbalarida bunday qo‘llashni uchratib bo‘lmaydi.

Masalan:

翻译林老爷拉了他一把袖子，悄悄地同他说：“这是洗嘴的水，不好吃的”。[Fān yì lín lǎo yé lā liǎo tā yī bǎ xiù zi, qiāo qiāo dì tóng tā shuō: “zhè shì xǐ zuǐ de shuǐ, bù hǎo chī de.”] Fan I bobo uning yengidan tortib, sekingina dedi: “bu suv og‘izni chayqash uchun, ichish uchun emas.”

这一点点事情，做哥哥的还可以帮你一把力。[Zhè yī diǎn diǎn shì qíng, zuò gēgē de huán kě yǐ bāng nǐ yī bǎ lì¹] Bu o‘zi kichkina bir ish, aka sifatida senga yana yordam bo‘lishi mumkin.”

X ulosa:

把“bǎ” jamlovchi hisob so‘zi 魏晋南北朝 Vey Jin Janubiy va Shimoliy sulolalari davridan boshlab rivojlanib, 宋元 Song Yuan sulolalari davriga kelganda keng ishlatila boshlangan, 明清 Ming Ching davrida esa tilda muqim o‘rin egallagan. Sintaktik jihatdan 把“bǎ” jamlovchi hisob so‘zi ilk davrlarda mash‘al kabi qo‘l bilan ushlaydigan dastasi bor bo‘lgan narsalarga nisbatan ishlatilgan, 魏晋南北朝 Vey Jing Janubiy va Shimoliy sulolalari davriga kelib esa uning qo‘llanish ko‘لامи kengaydi, ya’ni odamga nisbatan izohlashda ishlatilgan. 宋元 Song Yuan davrida suyuq jismlar o‘lchovini ifodalashda, keyinchalik esa abstrakt narsalarni izohlashda ishlatilgan. Morfologik jihatdan Vey Jing Janubiy va Shimoliy sulolalari davrida quyidagi “son + 把 hisob so‘zi + ot” va “ot + son + 把 hisob so‘zi”

gap strukturasi qo'llanilgan. Suy Tay davrida 把 “bā” dan keyin “子” [zi] suffiksi qo'shilib ishlatila boshlangan. Morfologik o'zgarishlar sababli 把 “bā” ning ma'nosida ham o'zgarishlar sodir bo'lган. Ching davrida “一把眼泪” [yī bā yǎ nleì] *duv duv ko'z yoshi*, “一把鼻涕” [yī bā bí tì] *shuv shuv burun oqishi* kabi turg'un birikmalar qo'llanila boshlandi. Suy Tay sulolalari davrida son hisob so'zi bilan faqatgina “一” yī *bir* soni qo'llanilgan bo'lsa, bu davrdan keyin 把 “bā” nafaqat aniq bir hisobni ifodalaydigan miqdor son sifatida, balki taxminni ifodalaydigan “几” [jǐ] *nechta*, “数” [shù] *bir nechta* so'zлari bilan ham qo'llanilgan. Bu bilan bir vaqtida son va hisob so'zining o'rtasiga “大” dà *katta*, “满” [mǎn] *to'la*, “小” [xiǎo] *kichkina* kabi sifatlar qo'yilib ishlatilgan.

把 “bā” harakat hisob so'zining paydo bo'lishi 把 “bā” fe'lining mustaqil so'z turkumidan xizmat qiluvchi so'z turkumiga xoslanib borishi jarayoni natijasida sodir bo'lган, hamda uning shakllanishiga 把 “bā” nom hisob so'zining ta'siri bo'lib, harakat hisobini ifodalovchi birlikni ifodalagan. Boshida qo'l kafti yordamida bajariladigan harakatni ifodalagan, keyin esa qo'l bilan bajariladigan harakatni ham ko'rsatgan, shu bilan birga harakatni shitob bilan, tez bajarilishiga urg'u bergen. 宋 davrida uning ilk ko'rinishlari paydo bo'lib, 元 davrida rivojlangan, 明清 davrida esa yetuk ko'rinishga ega bo'lган.

Morfologik xususiyati 把 “bā” harakat hisob so'zi ko'pincha son bilan birgalikda “son hisob so'zi va fe'l” birikmasini tashkil qilgan.

Sintaktik xususiyati fe'lдан oldin hol vazifasida kelib harakatni amalga oshirish usulini ifodalagan, hamda fe'lдан keyin kelib ish-harakatning takrorlanish darajasini va dinamikasini bildirgan. “Fe'l + son + hisob so'zi (把)” gap strukturasida fe'lдан keyin keladigan to'ldiruvchi ham shaxsni, ham narsani ifodalagan. Ching davriga kelib bitta gapda ham shaxsni ham narsani ifodalaydigan to'ldiruvchini uchratish holatlari bo'lган.

Foydalilanilgan adabiyotlar

- 李春梅. 汉语名量词“把”的发展演变. 邵阳学院学报（社会科学版）[Lǐchūn méi. Hán yǔ míng liàng cí“bā”de fā zhǎn yǎn biàn. Shào yáng xué yuàn xuébào (shè huì kē xué bǎn)], 2006, vol.11, №3, 87 b.
- 刘向“新序，杂事第 1” [Liú xiàng “xīn xù, záshì dìyī”] 2016. <https://ctext.org/xin-xu/za-shi-yi/zhs>
- 贾思勰“齐民要术”第九卷 [Jiǎ sī xié “Qí mǐn yào shù” dì jiǔ juǎn] 2009 <https://ctext.org/wiki.pl?if=gb&chapter=335087&remap=gb>
- 皮日休“吴中苦雨因书一百韵寄鲁望” [Pí rì xiū “wú zhōng kǔ yǔ yīn shū yī bǎi yùn jì lǚ wàng”] 2009. https://m.gushiwen.cn/shiwenv_44a7e4ad5d8f.aspx

5. 房玄龄等“晋书”卷 66 “列传第三十六” [Fáng yáo líng děng “Jinshū” juǎn liù shí liù “Liè chuán dì sān shí liù”] 1974. <https://book.douban.com/subject/1038619/>
6. 施耐庵, 罗贯中“水浒传”第 5 回 [Shī nài ān, Luó guàn zhōng “Shuǐ hǔ chuán” dì wǔ huí] 2004. 250 b.
7. 曹雪芹等“红楼梦» 第 12 回 [Cáo xuě qín děng “Hóng lóu mèng” dì shí èr huí] 2011. http://www.guoxue.com/minqingstory/HLM/HLM_012.htm
8. 冯梦龙“醒世恒言”第 35 卷 [Féng mèng lóng “Xǐng shì héng yán” dì sān shí wǔ juǎn] 2010. 417 b.
- 9.“水浒传”第六十二回 [“Shuǐ hǔ chuán” dì liù shí èr huí] 2017. 252 b.
10. 吴承恩“西游记”第 3 回 [Wú chén gēn “Xī yóu jì” dì sān huí] bet-12.
11. 李伯元“官场现形记”第十五回 李伯元“官场现形记”第 31 回 [Lǐ bó yuán “Guān chǎng xiàn xíng jì” dì shí wǔ huí lǐ bó yuán “Guān chǎng xiàn xíng jì” dì èr shí yī huí] 2014 <https://www.99csw.com/book/5745/index.htm>
12. Karimov A. Xitoy tilidagi hisob so‘zlar. 汉语量词 - Fan va texnologiyalar bosmaxonasi. — Toshkent 2003. — B. 103-104.
13. Ван Луао-И. Основы китайской грамматики. — Москва: Издательство иностранной литературы, 1954. — 120 с.
14. 刘月华。实用现代汉语语法。北京, 2004 年。
Liu Yuehua. Shiyong xiandai hanyu yufa [Practica modern Chinese grammar], Beijing, 2004. 121 b.
15. Горелов В.И. Грамматика китайского языка. — Москва, 1974. — 47 с.

References

1. Li Chunmei. *Journal of Shaoyang University* (Social Science Edition), 2006, vol.11, No. 3, p. 87.
2. Liu Xiang, New Preface, Chores No.1, 2016, available at: <https://ctext.org/xin-xu/za-shi-yi/zhs>
3. Jia Sixie, Qi Min Yao Shu, Volume 9, 2009, available at: <https://ctext.org/wiki.pl?if=gb&chapter=335087&remap=gb>
4. Pi Rixiu, Bitter Rain in Wuzhong Sends the Hope of Lu through a Hundred Rhymes of Books, 2009, available at: <https://m.gushiwen.cn/shiwen/44a7e4ad5d8f.aspx>
5. Fang Yaoling et al. "Book of Jin", Volume 66, "Biography No. 36", 1974, available at: <https://book.douban.com/subject/1038619/>
6. Shi Naian, Luo Guanzhong "Water Margin" Chapter 5 2003, 250 p.
7. Cao Xueqin et al. "Dream of Red Mansions» Chapter 12. 2011, available at: http://www.guoxue.com/minqingstory/HLM/HLM_012.htm
8. Feng Menglong "Xing Shi Heng Yan", Volume 35, 2010, 417 p.
9. "Water Margin" Chapter 62, 2017, p. 252
10. Wu Chengen "Journey to the West", Chapter 3, 12 p.

11. Chapter 15 of Li Boyuan's "Appearance in Officialdom" Chapter 31 of Li Boyuan's "Appearance in Officialdom" Chapter 31 2014.
<https://www.99csw.com/book/5745/index.htm>
12. Karimov A. *Xitoy tilidagi hisob suzlar* (Measure word in Chinese), Tashkent 2003, pp.103-104.
13. Van Lyao-I. *Osnovy kitaiskoi grammatiki* (Basics of Chinese grammar), Moscow: Publishing house of foreign literature, 1954, 120 p.
14. Liu Yuehua. *Shiyong xiandai hanyu yufa* (Practical modern Chinese grammar), Beijing, 2004, 121 p.
15. Gorelov V. I. *Grammatika kitaiskogo yazyka* (Chinese grammar), Moscow, 1974, 47 p.